

Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universitetida Milliy qadriyatlar va ularning millat ma'naviyatidagi o'rni" shiori ostida **"Mening O'zbekistonim"** eng yaxshi videoroliklar tanlovi taqdirlash marosimi

BAYONNOMASI

2025-yil 17-oktabr

Faollar zali

Raislik qiluvchi:

N.Kodirov -Yoshlar masalalari va MMIB birinchi prorektori

Kotib:

F.Ismagilova - Universitet katta tyutori

Qatnashdilar:

G.Bektemirova- Talabalarni qo'llab-quvvatlash departamenti direktori, G.Sultanova-Madaniyat va ijodkorlik markazi rahbari, Y.Ahadova- universitet tyutori, Sh.Kurbanova- madaniyat va ijodkorlik markazi mutahassisi

KUN TARTIBI.

1. TXVUda tahsil oluvchi talaba-yoshlar o'rtasida **"Mening O'zbekistonim"** eng yaxshi videoroliklar tanlovini o'tkazish to'g'risida
2. TXVUda tahsil oluvchi talaba-yoshlar o'rtasida **"Mening O'zbekistonim"** eng yaxshi videoroliklar tanlovi g'oliblarini taqdirlash to'g'risida.
3. G'olib bo'lgan 1-o'rinni egallagan talabaning hujjatlari (bayonnomasi va ijodiy materiallari – videoroligi Respublika tashkiliy ishchi guruhiga taqdim etish.

2025-yil 17-oktabr kuni Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universitetida **"Mening O'zbekistonim"** eng yaxshi videoroliklar tanlovi o'tkazish g'oliblarini taqdirlash, g'olib bo'lgan talabaning ijodiy materiallari videoroligi Respublika tashkiliy ishchi guruhiga final bosqichiga taqdim etish masalalari yuzasidan yig'ilish o'tkazildi. Yigilishga TXVU Yoshlar masalalari va MMIB birinchi prorektori N.Kadirov raislik qildi.







Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan TXVU Yoshlar masalalari va MMIB birinchi prorektori N.Kadirov so'zga chiqib, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 muhim tashabbus doirasida talaba-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni ma'naviy kamolotga yo'naltirish, hamda talaba-yoshlar ongida Vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish hamda mamlakatimizda amalga oshiralayotgan keng ko'lamli islohotlarda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash, talaba-yoshlarni ezgu maqsadlarga ilhomlantirish, talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, O'zbekistonimizning qadimiy va boy tarixi, madaniyati, ma'naviy-ma'rifiy ildizlarini o'rganish, yoshlarimizni mardlik, jasorat va matonat ruhida tarbiyalash, ularni o'z iqtidorlarni namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda mustaqil va erkin fikrga ega iste'dodli talabalarni qo'llab-quvvatlash, iqtidorli talabalarning ijodiy ishlari, aktyorlik, montajyorlik, rejissyorlik va ijodkorlik mahoratlarini qo'llab quvvatlash, yosh avlodni har tomonlama yetuk, yuksak ma'naviyatli, intellektual salohiyatli, Vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalash ularga o'z iqtidorlarini namoyish etish uchun imkoniyat yaratish hamda ularni rag'batlantirish maqsadida 2025-yil 15-oktabr kuni Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universitetida **"Mening O'zbekistonim"** eng yaxshi videoroliklar tanlovi 4-bosqichi fakultetlar jamoalari o'rtasida, o'tkazildi. Tanlovni yuqori saviyada o'tkazish maqsadida Tashkiliy ishchi guruh shakllantirildi va ularga tanlovni tanlovni Nizom talablariga asosan odilona baholash kabi vazifalar yuklatildi"- degan fikrlarni bildirib o'tdi.



Shundan so'ng raislik qiluvchi kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan so'zni Talabalarni qo'llab-quvvatlash departamenti direktori Gulnaz Bektemirova Talgatovnaga berdi. Gulnaz Bektemirova TXVUda tahsil oluvchi talaba-yoshlar o'rtasida **"Mening O'zbekistonim"** eng yaxshi videoroliklar tanloviga qatnashish istagini bildirgan talabalar soni ko'p bo'lganligini ularning ijodiy iahlarini ko'rib chiqib baholash maqsadida tuzilgan ishchi guruh a'zolari ko'rib chiqib, Nizom asosida baholaganliklari, ishchi guruh qaroriga ko'ra **"Mening O'zbekistonim"** tanlovining g'olibi deb to'rtinchi bosqich talabasi (ID 00016516) Saida Vahabova Bekzod-qizi e'lon qilinganligi va bu talabani tanlovdagi shtirokini munosib taqdirlash to'g'risida aytib o'tdi.



Shundan so'ng raislik qiluvchi kun tartibidagi uchinchi masala yuzasidan so'zni universitet katta tyutori Ismagilova Farida Xamidullayevnaga berdi. Ismagilova Farida tanlov talaba yoshlar o'rtasida mavjud Nizom asosida o'tkazilganligi, bir qancha talabalar o'zlarining ijodiy ishlari bilan ishtirok etganliklari, bunda milliylikni targ'ib qilish, ularni milliy merosimiz va qadimiy urf-odatlarimiz bilan yaqindan tanishtirishga qaratilganligi, yoshlarda harbiy vatanparvarlik ruhini oshirishga qaratilgan bo'lishi, O'zbekistonning tarixi va bugungi kuni, hozirgi kunda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar haqida bo'lishi kerakligiga ahamiyat qaratganliklari va ishtirokchilar orasidan ishchi guruh tomonidan saralab olingan **"Mening O'zbekistonim"** tanlovining g'olibi Saida Vahabova Bekzod-qizining (ID 00016516) barcha hujjatlari Respublika tashkiliy ishchi guruhiga taqdim etilishi haqida aytib o'tdi. Saida Vahabova Bekzod-qizi ushbu tanlovda ishtirok etagan 31 nafar talabalar o'rasidan saralanganini, ushbu tanlovga 17 nafar o'qituvchi pofessorlar jalb etilganligini alohida ta'kidlab o'tdi.



Yuqorida bildirilgan fikrlarni inobatga olgan holda

QAROR QILINDI:

1. TXVU da tahsil oluvchi talaba yoshlar o'rtasida **“Mening O'zbekistonim”** eng yaxshi videoroliklar tanlovining universitet bosqichi qoniqarli o'tkazildi deb hisoblansin.
2. TXVU da tahsil oluvchi talaba yoshlar o'rtasida o'tkazilayotgan tanlovlarning haqqoniy tashkil etilishiga ahamiyat qaratilsin.
3. TXVU da tahsil oluvchi talaba yoshlar o'rtasida **“Mening O'zbekistonim”** eng yaxshi videoroliklar tanlovlarni doimiy o'tkazib borishga erishilsin.
4. Tanlov natijalari yuzasidan tanlov ishtirokchilariga nizomda belgilangan tartibda mukofotlashni tashkillashtirilsin.
5. TXVU da tahsil oluvchi talaba yoshlar o'rtasida **“Mening O'zbekistonim”** eng yaxshi videoroliklar tanlovining universitet bosqichida g'olib bo'lgan Saida Vahabova Bekzod-qizining ijodiy ishlari (videoroligi) Respublika tashkiliy ishchi guruhiga final bosqichida ishtirok uchun taqdim etilsin.

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha birinchi prorektori:

Universitet katta tyutori:

N.Kadirov

F.Ismagilova